



# IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

## №4



# 2026

ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, aprel.*

### Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

### Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

### Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i  
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari  
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i  
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari  
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi  
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
Abdulkarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli**, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Prosecutor of Anijan Region  
**Ochilov Farkhod**, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TO'LOV INFRATUZILMASINI SHAKILLANISHI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI: TARIXIY, ILMIY HAMDA BOZOR TAHLILI .....	32
<b>A.A. Akbarov, X.R. Aliyev</b>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISHNING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI.....	42
<b>Karayev Payzillaxon Yusufxonovich</b>	
TURIZM KORXONALARINING INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY AKTIVLARINING ROLI.....	47
<b>Ruzibayeva Nargiza Xakimovna</b>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKOLOGIK SOLIQLAR VA TO'LOVLAR TIZIMI TAHLILI .....	53
<b>Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich, Abdolnizozov Murodbek Madiyarovich</b>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA IJTIMOYIY HIMOYA TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLAR VA TIZIMGA KIRITILAYOTGAN O'ZGARISHLAR.....	59
<b>Kasimova Gulyar Axmatovna, Aripova Kamola Botir qizi</b>	
MINTAQAVIY RIVOJLANISHNI KOMPLEKS BAHOLASH VA PROGNOZLASHDA EKONOMETRIK VA SUN'IY INTELLEKT USULLARINING INTEGRATSIYASI .....	64
<b>Namazov Gafur Shokulovich</b>	
BALIQCILIK SUBYEKTLARINI RIVOJLANTIRISHDA DUNYO MAMLAKATLARINING O'RNI .....	69
<b>Beglayev Uchqun Xurramovich</b>	
KAMBAG'ALLIK FENOMENINING IJTIMOYIY-IQTISODIY VA NAZARIY-KONTSEPTUAL ASOSLARI .....	75
<b>Musulmonova Shahlo Nasriddinovna</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA HISOB VA BIZNES JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI .....	81
<b>Artikova R.A.</b>	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA DIVIDEND TO'LASH QOBILİYATI KOEFFITSIYENTINING MAQBUL ORALIG'INI ANIQLASH VA UNING INVESTITSION SAMARADORLIKKA TA'SIRI.....	88
<b>Ibragimov G'anjion G'ayratovich</b>	
STRATEGIES TO RAISE AWARENESS OF NATURAL POLLUTION AMIDST RISING POPULATION DENSITY AND GDP PER CAPITA IN UZBEKISTAN .....	93
<b>Axliddin Aroplitdinovich Valiyev, Askarov Farhod Rakhmatovich</b>	
РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ESG-ОРИЕНТИРОВАННОМ РАЗВИТИИ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ.....	99
<b>Айматова Фарида Хуразовна</b>	
KORXONALARDA INVESTITSION FAOLIYATINI RIVOJLANISHINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	107
<b>Shukurillaev Jahongir Botir o'g'li</b>	
DEHQON XO'JALIKLARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA KREDITLAR MIQDORINI DIFFERENSIYALLASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR .....	113
<b>Xakimov Zafar Ibragimovich</b>	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI .....	118
<b>Tadjimirzayev Anvar Abduvoxidovich, Batirova Raxima Abdujabborovna</b>	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA HUDUDIY MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	124
<b>Muhammadiyeva Nodira</b>	
SUN'IY INTELLEKT DAVRIDA HUDUDIY RIVOJLANISHNI STATISTIK HISOBLASH METODOLOGIYASINI QAYTA BAHOLASH MEZONLARI (SCOPUS VA WEB OF SCIENCE DA INDEKSLANGAN ILMIY NASHRLAR TAHLILI ASOSIDA).....	131
<b>Santjar Abdumurodovich Sattorov</b>	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIY-IQTISODIY OMILLARI VA ISTIQBOLLARI .....	139
<b>Allamuratova Perida Maxsetbaevna</b>	



XORAZM VILOYATIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ROLI VA AHAMIYATI .....	144
Ro'zmatova Farahongiz Bekmurotovna, Yarmetova Nargiza Shiximbayevna	
MAHALLIY VA XALQARO TURIZM BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI, TAMOIYILLARI VA MEXANIZMLARI .....	152
Alikulov Samar Abdurashidovich	
TRANSPORT XIZMATLARINING SOHALAR BO'YICHA TAQSIMOTI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TASNIFI .....	159
Karimova Shaxnoza Uktamovna	
RAQAMLI TO'LOVLAR VA O'ZBEKISTONDA KORPORATIV BOSHQARUV SHAFFOFLIGI .....	165
Ruziyeva Barno Yadgarovna	
TIJORAT BANKLARIDA CHAKANA TO'LOV XIZMATLARINI RAQAMLI MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH .....	168
Maxmudov Boburbek Axmedjan o'g'li	
ESG-ТРАНСФОРМАЦИЯ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ПО ПРОИЗВОДСТВУ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВКИ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И МИРОВЫЕ ПРАКТИКИ .....	172
Ташпулатов Дильмурад Рустамович	
MAJBURIY IJRO HARAkatLARINI RAQAMLASHTIRISHNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI .....	177
Matmuratova Nasiba Azatovna	
OZIQ-OVQAT KORXONALARIDA KICHIK BIZNESNING RAQOBATBARDOSHLIGINI CHEKLOVCHI OMILLAR TAHLILI .....	181
Pulatov Abdulla	
INVESTITSION LOYIHALARNING IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI VA ULARNI MOLIYALASHTIRISH ISTIQBOLLARI .....	185
Nazarov Aziz Avazovich	
ФИНАНСОВАЯ УСТОЙЧИВОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЯ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ .....	190
Тажибаева Кызларгул Ажиниязовна	
IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA SANOAT KORXONALARI FAOLIYATINI DIVERSIFIKATSIYALASHNING MAQSADLI PROGNOZ PARAMETRLARI .....	197
Omonova Nafisa Qahramon qizi	
MANAGEMENT STRATEGIES IN WOMEN'S BUSINESS: GENDER-SPECIFIC APPROACHES, INNOVATIVE MODELS, AND DIGITAL TRANSFORMATION .....	200
Ahrorova Asila	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARI INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI .....	207
Hakimova Oydina Abdulhamidovna, Yuldasheva Nilufar Abduvaxidovna	
INSON TARAQQIYOTI INDEKSI VA UNI ANIQLAB BERUVCHI KO'RSATKICHLARNING KORRELYATSION-REGRESSION TAHLILI .....	212
Tursunov Rasul Tairovich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ПЕРЕХОДА НА МЕЖДУНАРОДНЫЕ СТАНДАРТЫ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ .....	218
Эргашева Феруза Насруллаевна	
ENHANCING THE METHODOLOGICAL FRAMEWORK FOR THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF TOURISM VILLAGES IN UZBEKISTAN .....	226
Khudaynazarova Dilorom Khayrullaevna	
THE ROLE OF INNOVATION IN ENSURING COMPETITIVENESS IN THE GREEN ECONOMY .....	231
Musadjanova Nargiza Abdvoxid qizi	
O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INGLIZ TILINING O'RNI VA SAMARADORLIGI .....	238
Saodat Sadriddinova	
OLIY TA'LIMDA CHET TILLARNI O'QITISH UCHUN RAQAMLI BOSHQARUV STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	243
Saida Xabibullayeva	



СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИСКАЛЬНЫХ МЕХАНИЗМОВ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ В СФЕРЕ ТУРИЗМА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	247
Исматиллаева Роза Тухтамуратовна, Тураева Сурия Тельмановна	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA PAHTA-TO'QIMACHILIK KLASHTERINING QIYMAT YARATISH UZLUKSIZ ZANJIRIDA AGROSERVIS XIZMATLARI KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH .....	252
Kudratova Iroda Turdibayevna	
QISHLOQ XO'JALIGI IQTISODIYOTIDA DIVERSIFIKATSIYANING AHAMIYATI .....	257
Nurullayeva Raushan Koptleuovna, Nurimbetov Timur Uzaqbergenovich	
FIZIKA UMUMIY KURSIGA NANOTEKNOLOGIYA TUSHUNCHALARINI KIRITISHNING METODIK ASPEKTLARI VA KOMPONENTLARI .....	260
Sottarov Abduvali Umirqulovich	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK HISOBOTLAR VA ULARNING TUTGAN O'RNI.....	266
Sayfullayev Mexroj Sayfullayevich	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA EKOLOGIK LOYIHALARNI MOLIVYALASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	272
Rahmanova Sitara Bahodir qizi	
SANOAT KORXONALARIDA OPERATSION MENEJMENT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	277
Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich	
IQTISODIY O'SISH DRAYVERLARINI RIVOJLANTIRISHDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA MOLIVAVIY XAVFLARNI BOSHQARISH.....	283
Turotova Nigora Xolmurod qizi	
QISHLOQ XO'JALIGIDA INNOVATSION INVESTITSIYALASH VA MUQOBIL MOLIVYALASHTIRISH MEKANIZMLARINI JORIY ETISH (SIRDARYO VILOYATI MISOLIDA) .....	286
Maxamadiyev Turg'unboy Jumabayevich	
O'ZBEKISTONDA XO'JALIK JAMIYATLARI KUZATUV KENGASHLARI FAOLIYATINING ILMIIY-METODOLOGIK ASOSLARINI RIVOJLANTIRISH.....	292
Valijonov Akmaljon	
IQTISODIYOTNING AGRAR SEKTORIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH: NAZARIY VA USLUBIY YONDASHUVLAR.....	296
Matrasulov Baxodir Erbutayevich	
O'ZBEKISTON MOLIVYA TIZIMIDA MAHALLIY MOLIVYANING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	303
Safarmurodova Marjona To'raqulovna	
МЕТОД ФОРМИРОВАНИЯ ЭФФЕКТИВНОГО ТУРИСТИЧЕСКОГО ПАКЕТА .....	308
Наурызбаев Алиакбар Рустамович	
QASHQADARYO VILOYATI SANOATINI XUDUDIIY TARKIBINI TAKOMILASHTIRISH YO'LLARI .....	311
Uralov Eliboy Omonovich	
INNOVATSION VA AN'ANAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA KO'CHAT YETISHTIRISHNING TAQQOSLAMA TAHLILI .....	316
Abdufarmonov Farrux Faxriddinovich	
EKSPORT IMKONIYATLARI VA LOGISTIKA SAMARADORLIGINI SOLISHTIRISH.....	320
Safarova Muxabbat Radjabovna	
IJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI O'SISHI DINAMIKASI VA LIKVIDLIK KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK .....	324
Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li	
KO'CHMAS MULKNI OMMAVIY BAHOLASHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI.....	331
Kushvaqtov Jasur Shuhrat o'g'li	
TURIZM XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARDA MOLIVAVIY HISOBOTLARNI MHXS GA O'TKAZISHDA TRANSFORMATSIYA REJASINI ISHLAB CHIQUISH MASALALARI.....	339
G'afforov Ithomjon Ilyosjonovich	
QURILISH SANOATI KORXONALARI DIVERSIFIKATSIYALASHUVINING IQTISODIY MEKANIZMLARI .....	343
Yembergenova Aynur Aydosbaevna	



KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANISHNING NAZARIY JIHATLARI .....	351
<b>Ulashova Zarnigor Botirali qizi</b>	
KAPITAL BOZORI ORQALI MAMLAKAT IQTISODIYOTIGA INVESTITSIYA JALB QILISHNING BELARUS TAJRIBASI .....	357
<b>Abduraxmanov Adham Raxmatullayevich</b>	
BARQAROR QISHLOQ XO'JALIGI AMALIYOTLARINI JORIY ETISHDA XULQ-ATVOR OMILLARINING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI .....	362
<b>Tadjiyev Abdusame Abduhamidovich</b>	
SANOAT KORXONALARIDA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINI JORIY ETISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI .....	367
<b>Abduxamid Abdumalikovich Bektemirov</b>	
O'ZBEKISTONDA MEHMONXONALARNI MOLIYALASHTIRISH ORQALI JOYLASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI .....	373
<b>Xasanova Naimaxon Akmal qizi</b>	



# O'ZBEKISTONDA MEHMONXONALARNI MOLIYALASHTIRISH ORQALI JOYLASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Xasanova Naimaxon Akmal qizi

Namangan davlat universiteti magistranti

E-mail: [naimaxanova@gmail.com](mailto:naimaxanova@gmail.com)

ORCID: 0009-0003-6976-5351

**Annotatsiya.** Ushbu ilmiy maqolada mehmonxonalarni moliyalashtirish tizimlarini takomillashtirish orqali joylashtirish tizimini rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda mehmonxona xo'jaligini moliyalashtirishning zamonaviy manbalari, investitsiyalarni jalb etish shakllari, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari hamda moliyaviy qo'llab-quvvatlash choralarning joylashtirish tizimi samaradorligiga ta'siri kompleks tarzda o'rganiladi. Tadqiqot natijalari asosida O'zbekiston sharoitida mehmonxonalarni moliyalashtirish orqali joylashtirish tizimini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** mehmonxona xo'jaligi, moliyalashtirish, joylashtirish tizimi, investitsiyalar, turizm infratuzilmasi, davlat-xususiy sheriklik, Turkiya.

**Abstract.** This scientific article analyzes the issues of developing the accommodation system through improving hotel financing mechanisms. The study examines modern sources of financing in the hotel industry, forms of investment attraction, public-private partnership mechanisms, and the impact of financial support measures on the efficiency of the accommodation system in a comprehensive manner. Based on the research findings, scientific and practical recommendations are developed to improve the accommodation system in Uzbekistan through enhanced hotel financing.

**Key words:** hotel industry, financing, accommodation system, investments, tourism infrastructure, public-private partnership, Turkey.

**Аннотация.** В данной научной статье анализируются вопросы развития системы размещения посредством совершенствования механизмов финансирования гостиничного хозяйства. В исследовании рассматриваются современные источники финансирования гостиничной индустрии, формы привлечения инвестиций, механизмы государственно-частного партнёрства, а также влияние мер финансовой поддержки на эффективность системы размещения в комплексном аспекте. На основе результатов исследования разработаны научно-практические рекомендации по совершенствованию системы размещения в условиях Узбекистана за счёт повышения эффективности финансирования гостиниц.

**Ключевые слова:** гостиничное хозяйство, финансирование, система размещения, инвестиции, туристическая инфраструктура, государственно-частное партнёрство, Турция.

## KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida turizm sohasining barqaror rivojlanishi, avvalo, uning infratuzilmaviy tarkibiy qismlarining samarali faoliyat yuritishiga bevosita bog'liqdir. Mazkur infratuzilmaning eng muhim bo'g'inlaridan biri bo'lgan joylashtirish tizimi, xususan, mehmonxona xo'jaligi turistik xizmatlar bozorida yetakchi o'rin egallaydi hamda turistik mahsulotning raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi [1]. Shu bois, mehmonxonalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish orqali joylashtirish tizimini rivojlantirish masalasi ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda turizm sohasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Xususan, turistik infratuzilmani kengaytirish, yangi mehmonxonalar qurish, mavjud joylashtirish obyektlarini modernizatsiya qilish hamda ularning xizmat ko'rsatish sifatini xalqaro



standartlar darajasiga olib chiqish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda [2]. Shu bilan birga, joylashtirish tizimining hududlar kesimidagi rivojlanish darajasi o'rtasidagi tafovutlar, mehmonxona xo'jaligida moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini yanada oshirish zarurati hamda investitsiya jarayonlarini takomillashtirish ehtiyoji ushbu sohada chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

Mehmonxona xo'jaligini moliyalashtirish masalalari ko'p jihatdan investitsiya manbalari tarkibi, moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, davlat-xususiy sheriklik shakllari hamda kredit-resurs siyosatining samaradorligi bilan uzviy bog'liqdir [3]. Ayniqsa, O'zbekiston sharoitida kichik va o'rta mehmonxona obyektlari faoliyatini moliyalashtirishni takomillashtirish, hududiy turizm salohiyatidan samarali foydalanish hamda xususiy investorlarni faol jalb etish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan, mehmonxonalarni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish orqali joylashtirish tizimini rivojlantirish yo'llarini ilmiy asosda tadqiq etish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur ilmiy maqolada ushbu masalalar O'zbekiston Respublikasi sharoitidan kelib chiqqan holda kompleks tarzda tahlil qilinadi [4].

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turizm infratuzilmasi va mehmonxona xo'jaligini rivojlantirish masalalari iqtisodiyot fanining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, mazkur soha bo'yicha xorijiy va o'zbek olimlari tomonidan keng ko'lamlil ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, joylashtirish tizimining shakllanishi, uning turizm industriyasidagi o'rni hamda mehmonxona xo'jaligini moliyalashtirish mexanizmlarining samaradorligi ilmiy adabiyotlarda turli yondashuvlar asosida yoritilgan.

O'zbek ilmiy adabiyotlarida A.X. Axmedov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda turizm infratuzilmasining tarkibiy qismlari, jumladan, mehmonxona xo'jaligining iqtisodiy mohiyati, joylashtirish obyektlarining hududiy rivojlanish xususiyatlari hamda ularning turistik bozorni shakllantirishdagi ahamiyati batafsil tahlil qilingan [5]. Muallif o'z asarlarida joylashtirish tizimining barqaror rivojlanishi moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish va investitsiya jarayonlarini faollashtirish bilan chambarchas bog'liqligini ilmiy asoslab beradi.

O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarda, xususan Prezident farmonlari va hukumat qarorlarida, mehmonxona xo'jaligini qo'llab-quvvatlash, yangi joylashtirish obyektlarini moliyalashtirish hamda investitsiya muhitini yaxshilashga alohida e'tibor qaratilgan [6]. Ushbu hujjatlarda davlat tomonidan soliq imtiyozlari, kredit resurslari va subsidiyalar orqali mehmonxona biznesini rag'batlantirish mexanizmlari belgilab berilgan bo'lib, ular joylashtirish tizimini takomillashtirishda muhim omil sifatida namoyan bo'ladi.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda, xususan BMT Jahon turizm tashkiloti (UNWTO) hisobotlarida, mehmonxona xo'jaligiga investitsiyalarni jalb etish, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish hamda davlat-xususiy sheriklik asosida joylashtirish infratuzilmasini rivojlantirish masalalariga katta e'tibor qaratilgan [8]. Ushbu tadqiqotlarda rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi tahlil qilinib, mehmonxona xo'jaligini moliyalashtirish orqali turizm infratuzilmasining raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili O'zbekiston sharoitida mehmonxonalarni moliyalashtirish orqali joylashtirish tizimini kompleks ravishda takomillashtirish masalalarini yanada chuqurroq o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Mazkur holat ushbu ilmiy maqolaning dolzarbligini yanada oshiradi hamda tadqiqot doirasida ushbu yo'nalishda chuqur ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishni taqozo etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur ilmiy tadqiqot mehmonxonalarni moliyalashtirish orqali joylashtirish tizimini takomillashtirish yo'llarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda kompleks va tizimli yondashuv asosida ilmiy izlanishlar olib borildi. Tadqiqot metodologiyasi turizm infratuzilmasi, mehmonxona xo'jaligi hamda moliyaviy munosabatlarning o'zaro bog'liqligini hisobga olgan holda shakllantirildi.

Tadqiqot jarayonida umumilmiy va maxsus ilmiy metodlardan keng foydalanildi. Xususan, tahlil va sintez metodlari yordamida mehmonxona xo'jaligini moliyalashtirish tizimining nazariy asoslari hamda joylashtirish tizimining iqtisodiy mohiyati o'rganildi. Induksiya va deduksiya metodlari orqali mehmonxonalarni moliyalashtirish bo'yicha mavjud yondashuvlar umumlashtirilib, ularning O'zbekiston sharoitida qo'llanilish imkoniyatlari baholandi.

Empirik tadqiqotlar doirasida statistik va taqqoslama tahlil metodlari qo'llanildi. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Turizm qo'mitasi hamda tegishli vazirlik va idoralarning rasmiy ma'lumotlari asosida mehmonxona xo'jaligining rivojlanish dinamikasi, joylashtirish obyektlari soni, ularning moliyaviy ko'rsatkichlari hamda investitsiya hajmlari tahlil qilindi. Ushbu ko'rsatkichlar xorijiy mamlakatlar tajribasi bilan qiyosiy tarzda o'rganildi.



Shuningdek, tadqiqotda tizimli yondashuv asosida mehmonxonalarni moliyalashtirish mexanizmlarining joylashtirish tizimi samaradorligiga ta'siri kompleks baholandi. Iqtisodiy-matematik tahlil va grafik usullar yordamida moliyalashtirish manbalari bilan joylashtirish obyektlarining rivojlanish ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik aniqlashtirildi.

Normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganishda huquqiy tahlil metodidan foydalanilib, turizm va mehmonxona xo'jaligini moliyalashtirishga oid Prezident farmonlari, hukumat qarorlari hamda davlat dasturlarining mazmuni tahlil qilindi. Ushbu hujjatlarning joylashtirish tizimini rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyati baholandi.

Tadqiqot natijalarini umumlashtirish jarayonida ekspert baholash hamda mantiqiy xulosalash metodlari qo'llanilib, O'zbekiston sharoitida mehmonxonalarni moliyalashtirish orqali joylashtirish tizimini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot metodologiyasida belgilangan statistik va taqqoslama tahlil usullari asosida o'tkazilgan empirik tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston Respublikasida mehmonxonalarni moliyalashtirish ko'rsatkichlarining o'sishi joylashtirish tizimining rivojlanish darajasi bilan bevosita va barqaror bog'liqlikka ega. Xususan, Davlat statistika qo'mitasi hamda Turizm qo'mitasining 2020–2024-yillar bo'yicha rasmiy ma'lumotlari asosida tuzilgan statistik jadval va grafiklar tahliliga ko'ra, mazkur davr mobaynida mehmonxona xo'jaligiga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmining ortishi natijasida joylashtirish obyektlari soni ham izchil ravishda oshib borgan [10].

Yakka tartibdagi va boshqa joylashtirish vositalari faoliyati tahliliga ko'ra, 2024-yilda O'zbekiston Respublikasida jami 566 ta yakka tartibdagi va boshqa joylashtirish vositalari faoliyat yuritgan. Ularning ixtiyorida 4 564 ta xona va 12 511 ta yotoq o'rni mavjud bo'lgan. Hisobot davrida ushbu joylashtirish vositalarida 605,0 ming nafar shaxs joylashtirilgan.

2023-yil bilan solishtirganda quyidagi ijobiy o'sish tendensiyalari kuzatildi (1-grafik):




1-grafik. 2023-yilda joylashtirish vositalari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari va o'sish sur'atlari

Mazkur grafik 2023-yilda yakka tartibdagi va boshqa joylashtirish vositalari faoliyatida kuzatilgan o'sish sur'atlarini ifodalaydi. Unda ko'rsatilishicha, joylashtirish vositalari soni 148 taga yoki 35,4 % ga oshgan bo'lib, bu sohada sezilarli kengayish jarayoni yuz berganini anglatadi. Shu bilan birga, xonalar soni 620 taga (15,7 %) hamda yotoq o'rinlari soni 845 taga (7,2 %) ko'paygani infratuzilmaning izchil rivojlanayotganini ko'rsatadi. Eng muhim ko'rsatkichlardan biri sifatida joylashtirilgan shaxslar soni 41,7 ming nafarga yoki 7,4 % ga oshgani esa turizm xizmatlariga bo'lgan talabning ortib borayotganini tasdiqlaydi. Umuman olganda, ushbu o'sish ko'rsatkichlari mehmonxona xo'jaligi va joylashtirish tizimining barqaror rivojlanish tendensiyasini aks ettiradi (1-jadval).




1-jadval. Yakka tartibdagi va boshqa joylashtirish vositalarining asosiy faoliyat ko'rsatkichlari (tegishli yil bo'yicha)




Mazkur jadval 2020–2024-yillar davomida yakka tartibdagi va boshqa joylashtirish vositalari sonining dinamik o'zgarishini aks ettiradi. Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilda ko'rsatkich ma'lum darajada pasaygan bo'lsa-da, keyingi yillarda barqaror o'sish kuzatilgan: 2022-yilda 305 taga, 2023-yilda 418 taga va 2024-yilda 566 taga yetgan. Ayniqsa, 2023–2024-yillarda o'sish sur'atining yuqori bo'lishi joylashtirish infratuzilmasining jadal rivojlanayotganini ko'rsatadi. Umuman olganda, ushbu o'zgarishlar turizm sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalar va qo'llab-quvvatlash choralariining ijobiy natijasini ifodalaydi (2-jadval).

2-jadval. 2020–2024-yillarda joylashtirilgan shaxslar soni dinamikasi (ming kishi)



Mazkur jadval 2020–2024-yillar davomida joylashtirilgan shaxslar sonining dinamik o'zgarishini aks ettiradi. Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilda 60,2 ming kishini tashkil etgan ko'rsatkich 2021-yilda 114,2 ming kishiga, 2022-yilda esa 144,3 ming kishiga yetgan. Ayniqsa, 2023-yilda keskin o'sish kuzatilib, ko'rsatkich 563,3 ming kishiga yetgan hamda 2024-yilda 605 ming kishini tashkil etgan. Ushbu o'sish dinamikasi turizm xizmatlariga bo'lgan talabning sezilarli darajada ortib borayotganini hamda joylashtirish tizimining faol rivojlanayotganini ifodalaydi (3-jadval).


3-jadval. 2020–2024-yillarda xonalar soni dinamikasi (birlik)






Mazkur jadval 2020–2024-yillar davomida joylashtirish vositalaridagi xonalar sonining dinamik o'zgarishini aks ettiradi. Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilda 3 507 tani tashkil etgan xonalar soni 2021-yilda 2 909 taga qisqargan bo'lsa-da, keyingi yillarda barqaror o'sish tendensiyasi kuzatilgan: 2022-yilda 3 758 taga, 2023-yilda 3 944 taga va 2024-yilda 4 564 taga yetgan. Ayniqsa, 2023–2024-yillarda o'sish sur'atining yuqori bo'lishi mehmonxona infratuzilmasining kengayib borayotganini ko'rsatadi. Umuman olganda, ushbu ko'rsatkichlar joylashtirish tizimi salohiyatining izchil oshib borayotganini ifodalaydi (4-jadval).

4-jadval. 2020–2024-yillarda yotoq o'rinlari soni dinamikasi (birlik)



Mazkur jadval 2020–2024-yillar davomida joylashtirish vositalaridagi yotoq o'rinlari sonining dinamik o'zgarishini aks ettiradi. Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilda 9 572 tani tashkil etgan ko'rsatkich 2021-yilda 8 511 taga kamaygan bo'lsa-da, keyingi yillarda barqaror o'sish kuzatilgan: 2022-yilda 10 441 taga, 2023-yilda 11 666 taga va 2024-yilda 12 511 taga yetgan. Ayniqsa, 2022–2024-yillarda o'sish tendensiyasining izchil davom etishi joylashtirish infratuzilmasining kengayib borayotganini ko'rsatadi. Umuman olganda, ushbu ko'rsatkichlar turizm sohasida xizmat ko'rsatish imkoniyatlari va sig'im darajasining oshib borayotganini ifodalaydi.

Metodologiyada ko'zda tutilgan tizimli yondashuv asosida tuzilgan (2-grafik)da moliyalashtirish manbalari (bank kreditlari, xususiy investitsiyalar va davlat subsidiyalari) ulushi yillar kesimida aks ettirilib, ularning diversifikatsiyalashuvi joylashtirish tizimi barqarorligini ta'minlashda muhim omil ekanligi aniqlandi (2-grafik).




2-grafik. O'zbekiston Respublikasida markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar(%)

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar va o'sish sur'atlari kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar hisobiga to'g'ri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 175,7 % ni tashkil etdi.



2024-yilning yanvar-sentabr oylarida korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 62,4 trln so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 18,2 % ini tashkil etdi. Aholi mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 6,6 % i yoki 22,7 trln so'mi o'zlashtirildi (3-grafik).



3-grafik. Yillar kesimida markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushlari (%)

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 100,9 trln so'mni tashkil etib, jami investitsiyalardagi ulushi 2023-yilning mos davriga nisbatan 3,3 foiz punktga oshib, 29,4 % ni tashkil etdi. Shuningdek, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarziy mablag'lari hisobidan 8,1 trln so'm jalb qilinib, bu jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 2,3 % ini tashkil etdi. O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 20,0 trln so'm (5,8 %), kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya hamda kreditlar 112,1 trln so'm (32,7 %), Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari 2,0 trln so'm (0,6 %), Respublika budjeti mablag'lari 13,3 trln so'm (3,9 %) hamda Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari 1,6 trln so'm (0,5 %) miqdorida asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirishda ishtirok etdi.

O'zbekiston va Turkiyada mehmonxonalarni moliyalashtirish manbalari hamda mexanizmlarining tuzilmasi qiyosiy tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, har ikkala mamlakatda ham mehmonxona xo'jaligini rivojlantirishda investitsiyalar muhim o'rin egallaydi, biroq ularning shakllanish manbalari, moliyaviy instrumentlar xilma-xilligi hamda samaradorlik darajasi jihatidan muayyan farqlar kuzatiladi. O'zbekistonda mehmonxonalarni moliyalashtirish asosan tijorat banklari kreditlari, davlat dasturlari doirasidagi imtiyozli moliyaviy resurslar hamda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobiga amalga oshirilmoqda. Turkiyada esa moliyalashtirish manbalari yanada diversifikatsiyalashgan bo'lib, unda bank kreditlari bilan bir qatorda kapital bozor instrumentlari, mehmonxona tarmoqlari tomonidan jalb etiladigan korporativ investitsiyalar, shuningdek, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlari keng qo'llaniladi [11].

Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Turkiyada mehmonxonalarni moliyalashtirishda xususiy sektor ulushining yuqoriligi joylashtirish tizimining barqaror rivojlanishiga, xizmatlar sifati va raqobatbardoshlikning oshishiga xizmat qilmoqda. O'zbekistonda esa davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash muhim o'rin egallab, infratuzilmani rivojlantirish jarayonida muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, istiqbolda xususiy investitsiyalar ulushini kengaytirish orqali moliyalashtirish tizimining samaradorligini yanada oshirish imkoniyatlari mavjud (5-jadval).

5-jadval. Mehmonxonalarni moliyalashtirish manbalarining qiyosiy tavsifi<sup>1</sup>

Ko'rsatkichlar	O'zbekiston	Turkiya
Asosiy moliyalashtirish manbalari	Bank kreditlari, davlat dasturlari	Bank kreditlari, kapital bozori, DXSh
Xususiy investitsiyalar ulushi	O'rtacha	Yuqori
Davlat qo'llab-quvvatlashi	Yuqori	Maqsadli va cheklangan
Moliyaviy instrumentlar xilma-xilligi	Cheklangan	Keng
Samaradorlik darajasi	O'sish bosqichida	Barqaror va yuqori

1 Muallif ishlanmasi.



Mazkur jadval O'zbekiston va Turkiyada mehmonxonalarni moliyalashtirish manbalari hamda mexanizmlarining qiyosiy tavsifini aks ettiradi. Undan ko'rinib turibdiki, har ikkala mamlakatda bank kreditlari muhim moliyalashtirish manbasi hisoblanadi, biroq Turkiyada kapital bozori va davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarining keng qo'llanilishi moliyalashtirish tizimining diversifikatsiyalashganini ta'minlamoqda. Shuningdek, Turkiyada xususiy investitsiyalar ulushining yuqoriligi hamda moliyaviy instrumentlar xilma-xilligining kengligi joylashtirish tizimining barqaror va samarali rivojlanishiga xizmat qilmoqda. O'zbekistonda esa davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlari muhim o'rin egallab, infratuzilmani rivojlantirishda asosiy omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Umuman olganda, qiyosiy tahlil natijalari O'zbekiston sharoitida moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish va xususiy sektor ishtirokini kengaytirish orqali tizim samaradorligini yanada oshirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi (6-jadval).

6-jadval. Mehmonxonalarni moliyalashtirish manbalarining qiyosiy tahlili (foizda)<sup>2</sup>

Mamlakat	Bank kreditlari	Xususiy investitsiyalar	Davlat qo'llab-quvvatlashi	DXSh va xorijiy investitsiyalar
O'zbekiston	35	25	20	20
Turkiya	30	35	15	20

Natijada, moliyalashtirish mexanizmlarining samaradorligi nuqtayi nazaridan Turkiya tajribasini O'zbekiston sharoitida investitsiya muhitini liberallashtirish, moliyaviy instrumentlarni kengaytirish hamda mehmonxona loyihalarining investitsion jozibadorligini oshirish orqali samarali tatbiq etish imkoniyatlari mavjudligi aniqlandi [12; 13; 14].

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, olib borilgan tadqiqot natijalari mehmonxonalarni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish joylashtirish tizimining barqaror va samarali rivojlanishida muhim omil ekanligini tasdiqlaydi. Statistik va qiyosiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, investitsiyalar hajmining oshishi, moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiyalashuvi hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralarning kengaytirilishi mehmonxona xo'jaligining rivojlanishiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, O'zbekiston sharoitida moliyalashtirish manbalarini yanada kengaytirish hamda xususiy investitsiyalar ulushini oshirish joylashtirish tizimi salohiyatidan to'liqroq foydalanish imkonini beradi. Turkiya tajribasi tahlili esa moliyalashtirish mexanizmlarini diversifikatsiya qilish va xususiy sektor ishtirokini kengaytirish muhimligini tasdiqlaydi.

Mazkur holatlardan kelib chiqib, quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi: birinchidan, mehmonxona loyihalariga xususiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantiruvchi soliq va moliyaviy imtiyozlarni kengaytirish zarur; ikkinchidan, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish orqali yirik turizm infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishni kuchaytirish lozim; uchinchidan, mehmonxona biznesi uchun uzoq muddatli va past foizli kredit resurslarini kengaytirish maqsadga muvofiq; to'rtinchidan, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, jumladan, kapital bozori instrumentlarini joriy etish zarur. Ushbu chora-tadbirlar joylashtirish tizimining raqobatbardoshligini oshirish hamda turizm sohasining barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Axmedov A.X. Turizm infratuzilmasi va mehmonxona xo'jaligi iqtisodiyoti. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2021.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF–5611-sonli "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-4143188>.
3. Mirzayev S.S., Karimov B.T. Mehmonxona xo'jaligini boshqarish va moliyalashtirish asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
4. UNWTO. Tourism and Hotel Investment Report. – Madrid: World Tourism Organization, 2022.
5. Axmedov A.X. Turizm infratuzilmasi va mehmonxona xo'jaligi iqtisodiyoti. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2021.
6. Mirzayev S.S., Karimov B.T. Mehmonxona xo'jaligini boshqarish va moliyalashtirish asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
7. UNWTO. Tourism and Hotel Investment Report. – Madrid: World Tourism Organization, 2022.
8. Axmedov A.X. Turizm infratuzilmasi va mehmonxona xo'jaligi iqtisodiyoti. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2021. – 112–115-betlar.
9. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Investitsiyalar bo'yicha rasmiy ma'lumotlar. URL: [https://stat.uz/img/press-reizlar/investitsiya-uzb-ildi\\_p80127.pdf](https://stat.uz/img/press-reizlar/investitsiya-uzb-ildi_p80127.pdf).

2 Muallif ishlanmasi.



10. "354 New Hotel and Tourism Investment Projects in Turkey by 2026". Turkiyada yangi mehmonxona va turizm investitsiya loyihalari haqida ma'lumot.
11. "1 Billion TL Hotel Investment in Istanbul – Turizm Databank". Turkiyada mehmonxona investitsiyalari statistikasi, 2022-yil.
12. "Investment Trends in Turkey's Hospitality and Accommodation Sector (2024–2025)". Turkiya mehmonxonalariga investitsiya tendensiyalari tahlili.
13. "Turkey ranks 4th in hotel investments". Yevropada mehmonxona investitsiyalari statistikasi.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2026. № 4**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>